

BUXORO VILOYATI TURIZM SOHASIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHNING YO'NALISHLARI

Abriyev Zoir

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Shamsiddinova Dilnoza

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola Buxoro viloyatining turistik salohiyati va uning tahlili, turizm sohasining aholi bandligiga ta'siri va uning iqtisodiyotdagi o'rnini chuqur tahlil qiladi. Shu qatorda, rivojlangan mamlakatlarning turistik salohiyatlari va tajribalarini o'rgangan holatda Buxoro viloyati turizm sohasining aholi bandligini oshirish imkoniyatlarini o'rganib chiqadi.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, statistik ma'lumotlar, etno-turizm, turistik obyektlar, subyektlar, gastronomik ko'cha, mehmonxona, mehmon-uyi, bo'sh ish o'rinlari, xodimlar, bandlik ko'rsatkichlari.

DIRECTIONS FOR INCREASING EMPLOYMENT IN THE TOURISM SECTOR OF BUKHARA REGION

Abriyev Zoir

Associate Professor, PhD, Tashkent State University of Economics

Shamsiddinova Dilnoza

Master's Student, Tashkent State University of Economics

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the tourism potential of the Bukhara region and its assessment, examining the impact of the tourism sector on employment and its role in the economy. Additionally, based on the study of tourism

potential and experiences of developed countries, the paper explores the opportunities for increasing employment through the development of the tourism sector in the Bukhara region.

Key words: economy, statistical data, ethno-tourism, tourist sites, tourism entities, gastronomic street, hotel, guest house, job vacancies, employees, employment indicators.

KIRISH

Bugungi kunda, sohalararo kechayotgan raqobatning ortib borish barchamizga ma'lum, shu jumladan, turizm sohasining iqtisodiyotdagi o'rni ham yuksalib bormoqda. Turizmning boshqa sohalar bilan aloqalarining kengayishi natijasida nafaqat shaharlarda balki shaharlardan chekka hududlarda xususan, qishloq jabhalarida ham bo'sh ish o'rinlari yartilmoqda. Butunjahon turizm va sayyohlik kengashi (World Travel and Tourism Council) ning ma'lumotlariga ko'ra, "2019-yilda jami 272 million kishi turizm sohasida band bo'lgan va 2019-yildagi xalqaro turistlar soni esa 1,5 milliardga teng bo'lgan. To'g'ridan-to'g'ri va bilvosita 284 million ish o'rinlarining ekvivalenti dunyodagi har 11 ish o'rnidan bittasiga tengdir. 2026-yilga kelib ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 370 million ish o'rinlariga ko'payishi kutilib, bu dunyodagi har 9 ish o'rinlaridan birini tashkil etadi"¹. Bundan ko'rinib turibdiki, turizm bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan va ishchi kuchi talab qiladigan sohalardan bir hisoblanadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda turizm sohasini yanada rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xizmat sifatini yaxshilash, turistik mahsulotini jahon bozoriga olib chiqish va o'zining turistik brendini dunyo brendlari qatoriga qo'shish bo'yicha qator yangiliklar qilinmoqda. O'zbekiston turizm va madaniy meros Vazirligi tomonidan "Fuqarolar yig'inlari hududlarida 20 tadan kam bo'lmagan oilaviy mehmon uylari yaratilgan taqdirda va sayyohlar uchun kamida besh xil xizmat turi (yashash va yoki

¹ <https://www.ilo.org>

ovqatlantirish xizmatlaridan tashqari) ko'rsatilgan taqdirda, ularga "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" yoki "Turizm ovuli" maqomi beriladi"².

Davlatimiz rahbari 2022 yil turizm uchun pandemiyadan qayta tiklanish davri boshlanganini, jumladan, joriy yilning sentabr oyigacha bo'lgan davrda yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlarning soni 2021 yilga nisbatan 3 barobarga ko'payib, 3,1 million nafarni tashkil etganligi, yil boshidan turizm eksporti hajmi 926 million dollar bo'lganligi, yurtimizga kelgan mehmonlarning sayohati o'rtacha 4-5 kungacha, sarflangan mablag'i 305 AQSH dollargacha ko'payganligi, ichki sayohat qiluvchilar soni 3,5 baravarga o'sib, 7,5 million nafarni, turizmda topilgan daromadning 30 foizi odamlarning qo'lga ish haqqi bo'lib borishi, sanoatda va boshqa tarmoqlarda bu 10 foizdan oshmasligini alohida ta'kidlab o'tdilar. Bundan kelib chiqadiki, malaktimizda turistik muammolarni bartaraf qilganimiz sari, xorijiy va mahalliy sayyohlarning soni ortaveradi va bu aholi orasida yangi ish o'rinlarini yaratilishiga sabab bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar:

So'nggi yillarda, yurtimizda turizm sohasi milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Sohani rivojlantirish maqsadida, mamlakatimizda 90 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumaladan, "Turizm to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri ishlab chiqildi hamda ushbu qaror 2019 yil 18 iyul kuni o'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolandi. Unga ko'ra, xorijiy davlatlardan tashrif buyuruvchi shaxslar uchun viza rejimi soddalashtirildi, xususan, ayni paytda 93 ta xorijiy davlatlar fuqarolari uchun vizasiz kirish, 56 ta davlat uchun elektron kirish vizasi, 47 ta davlat uchun besh kunlik transit vizasiz kirish tartibi belgilandi. Natijada, yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlarning soni keskin oshdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, xorijiy turistlar soni 2017 yilda 2,7 mln nafar bo'lsa, 2022 yilda 5,2 mln nafar, 2023 yilda 6,6 mln nafar, 2024 yilda 10,2 mln nafar(o'tgan yilning

² Халқ сўзи 14.08.2019 <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonda-turistik-mahallalar-qishloqlar-va-ovullar-pajdo-boladi>

mos davriga nisbatan 1,5 barobarga o'sgan) xorijiy turistlar tashrif buyurdi.

Turistlarning o'rtacha qolish kuni 7-8 kunni tashkil etib, o'tgan davr(2-3 kun)ga nisbatan 3 barvarga ortdi.³

Bugungi kunda, turizm sohasiga yosh kadrlarni jalb qilish va yangi turizm obyektlarini tashkil etish va yosh tadbirkorlarni rag'batlantirish maqsadida yurtboshimiz 15.05.2025 yildagi PF-87- sonli farmonlari yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu farmon "2025-2026- yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" bo'lib, uning asosiy maqsadlari sifatida quyidagilar begilandi:

-Respublika hududlariga 15,8 million nafar xorijiy turistlarning safarlarini tashkil etish, turizm xizmatlari eksportini 4 milliard AQSH dollariga yetkazish;

-Ichki turizmni rivojlantirish hisobiga 40 millonta mahalliy sayyohlarning hududlarga safarlarni tashkil etish, qo'shimcha 378 ta turoperator faoliyatini yo'lga qo'yish;

-Respublika hududlarida yangi 108 ta mehmonxona, 375 ta oilaviy mehmon uyi va 123 ta hostel qurish, 745 ta kapsula va o'tov uylari, apart-otel, modulli mehmonxonalar 12 ta turizm qishlog'i va turizm mahallasini tashkil etish⁴;

Shu bilan birgalikda, Respublikamiz hududlarida turistlar oqimini ko'paytirish maqsadida yuqoridagi farmonga qo'shimchalar kiritildi:

2025 yil 1 iyundan boshlab Bahrayn Qirolligi, Kuvayt Davlati va O'mon Sultonligi fuqarolari uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga kirgan kundan e'tiboran 30 kunlik muddatga vizasiz rejim belgilandi.

³ O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

⁴ <https://lex.uz/en/docs/7531559>

- Tashqi ishlar vazirligi uch oy muddatda:

(a) Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston va Ozarbayjon davlatlari fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududiga ichki hujjat yoki ID-karta, shu jumladan, 16 yoshga to‘lmagan fuqarolarga «kinder pasport» bilan 30 kungacha kirish rejimini joriy qilish;

(b) Amerika Qo‘shma Shtatlari fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududiga 30 kunlik muddatga vizasiz kirish rejimini joriy qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga Amerika Qo‘shma Shtatlari hududiga kirish uchun viza talablarini yengillashtirish yuzasidan muzokaralar boshlanib va yakuni bo‘yicha taklif kiritildi.

- Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarini Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Indoneziya, Malayziya va Ko‘rfaz arab davlatlaridan xorijiy turistlarni ko‘paytirish maqsadida tegishli hududlarga biriktirildi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalari bilan birgalikda o‘zlariga biriktirilgan hududlar bilan turizm sohasida aloqalarni kengaytirish bo‘yicha quyidagi ishlarni tashkil qilindi:

(a) turizm taqdimotlarini tashkil etish orqali biriktirilgan hududlardan turistlar oqimini oshirish hamda O‘zbekistonda zamonaviy turizm namoyishi obyektlarini barpo qilish uchun investitsiyalarni jalb qilish;

(b) har yili mazkur davlatlardan ommaviy axborot vositalari vakillari, taniqli blogger va vlogerlar uchun respublikamiz hududlariga kamida ikkita mediatur tashkil qilish;

(v) turizm yarmarka va ko'rgazmalari, taqdimotlar (roadshow), biznes forumlarda O'zbekiston turizm sohasi vakillari va tadbirkorlik subyektlari ishtirokini tashkil etishga ko'maklashish;

(g) hududlararo biznes forumlar, ishbilarmonlar o'rtasida delegatsiyalar almashinuvi kun tartibiga turizm masalalarini kiritib borish.

- 2025 yildan boshlab, har yili 30 noyabrga qadar kelgusi yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari quyidagilarni nazarda tutuvchi turizmni rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarni (keyingi o'rinlarda — hududiy dasturlar) ishlab chiqib, ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi:

(a) hududning turistik salohiyatini targ'ib qilish va xorijiy turistlarni jalb etish;

(b) turistik yo'nalishlarni kengaytirish, turistlarni himoya qilish va ularning xavfsizligini ta'minlash, hududda transport logistikasi va infratuzilmasini rivojlantirish, transport xizmatlari sifatini oshirish;

(v) hududda turizmni kompleks rivojlantirish va turizm infratuzilmasini takomillashtirish va lozim darajadagi holatda saqlash hamda sanitariya-gigiyenik holatini yaxshilash, uni rivojlantirishga investitsiyalar jalb qilish;

(g) joylashtirish vositalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, yirik, o'rta, kichik mehmonxonalar va boshqa turizm obyektlarini qurish loyihalarini amalga oshirish, tadbirkorlarga o'z xizmatlarining sifatini oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish;

(d) turizm navigatsiyasi tizimini rivojlantirish, ko'chalarda, transport vositalari hamda avtomobil yo'llarida turizm yo'l ko'rsatkichlarini o'rnatish.

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari 2025 yil 1 iyulga qadar 2025 yil uchun hududiy dasturlarni belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

(a) hududiy dasturlar tegishli xalq deputatlari mahalliy kengashlari va turizmni rivojlantirish bo‘yicha mahalliy jamoatchilik kengashlarida muhokama qilingandan so‘ng Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari tomonidan Turizm qo‘mitasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi;

(b) hududiy dasturlar turizm sohasida davlat dasturlari, turizmni rivojlantirish strategiyasi (konsepsiyasi) va boshqa davlat dasturlariga muvofiqlashtirilgan holda ishlab chiqiladi.⁵

Yuqoridagilar kelib chiqqan holatda, yangi turistik obyektlarni joriy qilish orqali nafaqat turistlar oqimini jadal rivojlantirish mumkin balki, yurtimizdagi ushbu sohaning yosh kadrlarini ish bilan ta‘minlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Natijalar:

O‘zbekiston Respublikasining turizm destinatsiyalarining biri Buxoro viloyati hisoblanadi. Buxoro viloyati nafaqat tarixiy lokatsiyalar bilan mashhur balkim bugungi kunda zamonaviy turistik maskanlarni ham yaratish va barpo etish bilan boshqa viloyatlardan ortda qolmayabdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28-sentabr 2022-yildagi 543- sonli “2022-2026-yil Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish to‘g‘risidagi” qarorga muvofiq viloyatda “street food” gastronomik ko‘chalarini tashkil qilish, viloyatning turizm destinatsiyalariga eltuvchi yo‘llarda yangi tur marshutlar qo‘yish, infratuzilmani yaxshilash, ”Qadimgi Poykent” (Poykend, Poykand— qad.karvon yo‘li ustida qad ko‘targan shahar harobasi (miloddan avvalgi 4-3-milodiy 11-asrlar). Buxorodan 44 km janubi-g‘arbda, Jondor va Qorako‘l tumanlari tutashgan xududda joylashgan. O‘rta asr yozma manbalarida shahar Boykand,


⁵ <https://lex.uz/en/docs/7531559>

Xitoy solnomalarida esa “Bi” nomlari bilan tilga olinadi. Uning nomlari „Quyi shahar“ ma’nosini anglatadi. Poykend tashqi devorlarining nihoyatda mustahkamligidan shahar ilk oʻrta asrlarda „Shahristoni Roʻin“, ya’ni „Jezdan qurilgan shahriston“ (Jez shahar) nomi bilan shuhrat topgan⁶.) arxeologiya merosi obyektini yanada mohofaza qilish, muzeylashtirish, tadqiq etish hamda arxeologiya parkini yaratish boʻyicha “yoʻl xaritasi”ni tuzish kabi vazifalar ustuvor qoʻyilgan. Shu bilan bir qatorda, 2022-2026-yillarda Buxoro viloyatiga tashrif buyuruvchi xorijiy turistlar sonini 5 million nafardan oshirish va viloyatdagi 800 ga yaqin tarixiy obyektlarni qaytadan restavratsiya qilish ushbu loyihaning eng asosiy maqsadi deb belgilangan.⁷

Shuningdek, har bir xorijiy sayyohning Respublika hududida bevosita sayohat xarajatlaridan tashqari sarflaydigan oʻrtacha xarajat 2017 yilda 197 AQSH dollarni tashkil qilgan boʻlsa, 2024 yilga kelib bu koʻrsatkich 430 AQSH dollarni tashkil qildi va turizm eksporti hajmi 2024-yilda 3,5 milliard AQSH dollariga yetdi. Ushbu koʻrsatkich turizm xizmatlar bozori va turizmdagi ishlab chiqarishga kattagina hissa qoʻshdi. Quyidagi dinamik koʻrsatkichlar orqali buni yaqqol koʻrishimiz mumkin.

⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Poykend>

⁷ <https://lex.uz/en/docs/6212874>



1-rasm. 2016-2024 yillarda Respublika bo'yicha joylashtirish vositalarining dinamikasi⁸

Yuqoridagi jadvalga asoslanib, 2016 yilda jami joylashtirish vositalarining soni 609 tani tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2024 yilda 6153 tani tashkil qilmoqda (bu ko'rsatkich 10 barobarga oshgan). Bundan tashqari, Respublikada 2025 yil 1 yanvar holatida yulduz (toifa) ega 5 yulduzli-6ta, 4 yulduzli-15 ta, 3 yulduzli-48 ta, 2 yulduzli- 5 ta jami 74 ta mehmonxonalar faoliyat yuritmoqda. Jumladan, ushbu ko'rsatkich Buxoro viloyatida 4 yulduzli-2 ta, 3 yulduzli- 4 tani tashkil etadi.

Munozara:

2024 yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda turizm sohasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, yangi 72 ta joylashtirish vositasi, jumladan, 15 ta mehmonxona (208 ta xona, 480 ta o'rin), 15 ta xostel (122 ta xona, 422 ta o'rin), 42 ta oilaviy mehmon uyi (179 ta xona, 411 ta o'rin) faoliyati yo'lga qo'yilib, 2023 yilgi 544

⁸ O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida shakllantirildi

tadan 605 taga yetkazildi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri (541 ta)ga nisbatan 111,8%ga oshdi. Shuningdek, 43 ta yangi turoperator, turagentlar faoliyati ish boshlashi natijasida ularning soni 2023 yildagi 143 tadan 186 taga yetdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri (142ta)ga nisbatan 131,0%ga oshdi. Viloyatga 1 mln 588 ming nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurib, ularga ko'rsatiladigan xizmatlar orqali turizm eksporti 397,0 million AQSH dollarga yetkazilib, xorijiy sayyohlar o'tgan yilning mos davri (10332,4 ming)ga nisbatan 119,2%ga oshdi. Shu bilan birga, respublika hududlaridan Buxoroga qariyb 3,8 mln nafar mahalliy aholi sayyoh sifatida tashrif buyurdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri (3,2 mln)ga nisbatan 116,1%ga oshdi.

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi doirasida Buxorodan respublika hududlariga 1 mln 230 ming nafar (o'tgan yilning mos davri (1171,9 ming)ga nisbatan 104,9 %ga oshgan) mahalliy aholi, korxona va tashkilot ishchi-xodimlarining sayohatlari tizimli tashkillashtirildi. 2024 yilning yanvar-oktyabr oylarida turizm va yondosh sohalarda qariyb 15,8 ming nafar yangi ish o‘rinlari tashkil etilishi natijasida bugungi kunda turizm va unga yondosh sohalarda 71,1 ming nafar aholining bandligi ta'minlandi.⁹

So'nggi o'n yil ichida Turizm ish o'rinlarini yaratish va bandlikning dinamik mexanizmi uchun muhim omil bo'ldi. 2019-yilda ushbu sektor 334 million ish o'rinlarini yaratdi (barcha ish o'rinlarining 10,6 foizi) va barcha ish o'rinlarining 4 tadan 1 tasini yaratishga erishdi. 2014–2019-yillarda butun dunyo bo'ylab aniq yangi ish o'rinlari. Pandemiya oldin Sayohat va Turizm global miqyosdagi eng xilma-xil sektorlardan biri bo'lib, bu quyidagilar bilan ifodalanadi: turizmning butun dunyo bo'ylab bandligining 54%i ayollar hissasiga to'g'ri keladi; boshqa tarmoqlarga qaraganda deyarli ikki baravar ko'p ayol ish beruvchiga ega bo'lgan sektordir; sayohat va turizm umumiy iqtisodiyotga qaraganda yoshlarning ulushiko'proq. Darhaqiqat, yoshlar bandligi eng yuqori bo'lgan sektor hisoblanadi. Dunyoda mehmonxona va transport narxini pasaytirish; Dunyo bo'ylab sayyohlarga oson viza va transport ta'minlanishi kerak; mamlakatlarning kirish va chiqish nuqtalarida yaxshi va qat'iy karantin ta'minlanishi kerak; Turist o'zini yaxshi tutishi va hech qachon ularga yomon so'zlarni

⁹ Turizm qo'mitasi statistik ma'lumotlariga asoslangan.

ishlatmasligi kerak; Dunyo bo'ylab turistlarni har doim sayyohlik joyida hurmat qiling. Tizimni boshqarish uchun turizm sohasida yaxshi va halol xodimlar tayinlanishi kerak. Butun dunyo hukumati tomonidan turizmni rivojlantirish uchun yaxshi siyosat tayyorlanishi kerak.¹⁰

1-jadval

Buxoro viloyati hududlari bo'yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni(ming kishi)¹¹

Kategoriylar		2019	2020	2021	2022	2023
Iqtisodiy faol aholi soni (jami ming kishi)		875.4	876.7	862.2	860.6	858.8
Ulardan:	Iqtisodiyotda bandlar	797.1	783.6	777.3	784.5	803.2
	ishsizlar	78.3	93.1	84.9	76.1	55.6
Aholining iqtisodiy faollik darajasi(foizda)		80.8	82.3	90.1	91.1	90.9
Aholining bandlik darjasi (foizda)		73.5	73.5	75.6	74.8	76.6
Ishsizlik darajasi foizda		8.9	10.6	9.8	8.8	6.5

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ishsizlik darajasi Buxoro viloyatida o'sish tendensiyasiga ega hamda aholining bandlik darajasi esa kamayayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ko'rsatkichning o'sish darjasi 2019-yildan so'ng yuqori bo'lgan ya'ni 2019-yilda 8.9 foiz bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 2.4 foizga tushib 6.5 foizni tashkil etgan. 2020-yilda esa bu ko'rsatkich 10.6 foizni tashkil etgan, ammo bu o'sishni pandemiya bilan izohlashimiz mumkin

Xulosa

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, so'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasida yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, Buxoro viloyatida turistik salohiyatni ko'tarish, aholi uchun bo'sh ish o'rinlarini yaratish, bandlik ko'paytirib ishsizlikni yo'qotish m

¹⁰ <https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/turizm-sohasini-rivojlantirishning-aholi-bandligini-ta-minlashga-ta-siri%28buxoro-viloyati-misolida>

¹¹ O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mita asosida tayyorlangan

aqsadida qator yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, so‘nggi yillarda viloyatda ichki va tashqi turizm salohiyati kengayib, yangi ish o‘rinlari yaratilishi, xususan, yoshlar va ayollar bandligini ta‘minlash borasida ijobiy natijalarga erishilmoqda. Shu bilan birga, qishloq turizmni rivojlantirish maqsadida 2024 yil noyabr oyida viloyatning G‘ijduvon tumanidagi “Qo‘rg‘on” va “Chorsu” mahallalarida “Turizm mahallasi”, Vobkent tumani dagi Shirin qishlog‘ida “Shirin turizm etno qishlog‘i”, Ahmad Donish ko‘chasida “Turizm ko‘chasi”, Buxoro shahridagi “Turki Jandi” mahallasida “Turizm mahallasi” tashkil qilindi. Qishloq turizmi, hunarmandchilik, mehmon uylari, ekoturizm va gastronomik turizm kabi yo‘nalishlar aholiga qo‘shimcha daromad manbai yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshtayev A.A. O‘zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari, Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, Toshkent, 2019, №3, 45–52-betlar.
2. Xaliyeva N.R. Turizm sohasini rivojlantirishning aholi bandligini ta‘minlashga ta‘siri (Buxoro viloyati misolida), Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil jurnali, Toshkent, 2020, №5, 88–94-betlar.
3. Dilmonov Q.B. Buxoro viloyatida ichki turizmni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, Servis va turizm ilmiy-amaliy jurnali, Buxoro, 2021, №2, 33–39-betlar.
4. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, Toshkent, 2018, 312 bet.
5. Rasulov A., Hayitboyev R. Turizm iqtisodiyoti, Fan va texnologiya nashriyoti, Toshkent, 2017, 256 bet.
6. Alimuhamedov M. O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘llari, Iqtisodiyot va ta‘lim jurnali, Toshkent, 2021, №4, 120–126-betlar.
7. Saidov S. Hududiy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari, Moliya jurnali, Toshkent, 2019, №6, 74–81-betlar.

8. Xudoykulov S. Ichki turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari, Turizm va mehmonxona xo‘jaligi ilmiy jurnali, Samarqand, 2022, №1, 50–58-betlar.